QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA OCHIB BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	880
<b>Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li</b>	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	885
<b>Мухторов М. Н., Каримова А. М.</b>	
FIZIK XAVFSIZLIK NAZORATI VA UNI ISPY DASTURI ASOSIDA MONITORING QILISH.....	892
<b>Usmanbayev Doniyorbek Shuxratovich</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI .....	902
<b>Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli</b>	
KALSIYLANGAN SODA ISHLAB CHIQRISHDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNI METROLOGIK TA'MINLASHNING AHAMIYATI .....	910
<b>Ametova Biybisuliu Xamidullaevna, Ametov Quanishbay Xamidullaevich</b>	
ЛЬГОТЫ ПО ПРЯМЫМ И КОСВЕННЫМ НАЛОГАМ И ИХ ГАРМОНИЧНОЕ СООТНОШЕНИЕ .....	915
<b>Фаттоев Олимжон Гайрат ўғли</b>	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	920
<b>Ulashova Zarnigor Botirali qizi</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	925
<b>Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi</b>	
IQTISODIY TIZIMDA RISK VA UNING XUSUSIYATLARI TAHLILI.....	929
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	
INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	937
<b>Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li</b>	
SOLIQ NAZORATINING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	945
<b>Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li</b>	
FISKAL MEXANIZMLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETISH XUSUSIYATLARI.....	950
<b>Ne'matov Ne'matulla Erkinboyevich</b>	
ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	955
<b>Воронин Сергей Анатольевич, Ахмедова Фазилат Жураевна</b>	
IMPROVING EMPLOYEE MOTIVATION AND DEVELOPING AN EFFECTIVE INCENTIVE SYSTEM IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT.....	962
<b>Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor ugli, Ashurova Jasmina Jo'ra kizi</b>	





O'ZBEKISTONDA KO'P POG'ONALI PENSIYA TIZIMIGA O'TISHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA MOLIYAVIY BARQARORLIK MODELLARI .....	966
<b>Mamatqulova Yayra Dilmurod qizi</b>	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	971
<b>Astanayev Kulmakhammad Sanayevich</b>	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV OMILLARI VA BOSQICHLARI .....	977
<b>Abdullayeva Zulfiya Izzatovna</b>	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA JUST-IN-TIME TIZIMIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI ... .....	981
<b>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</b>	
KORXONALARDA ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING AUDITINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI .....	986
<b>Djumayeva Guzal Axtamovna, Sag'dullayev Abdullo Valijon o'g'li</b>	
XOM ASHYO VA MATERIALLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	990
<b>Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi, Rafikova Aziza Xurshid qizi</b>	
AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA MEHNAT RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'RNI (Navoiy viloyati misolida) .....	994
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b>	



# AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'RNI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

**O'roqov Mamurali Odil o'g'li**

Sharq Universiteti, Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0005-6053-4498

mail: [mamuraliodilovich714@gmail.com](mailto:mamuraliodilovich714@gmail.com)

tel: +998-94-227-3131

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aholi turmush sifatini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mehnat resurslarining bandlik darajasi, iqtisodiy faolligi, daromadlar shakllanishiga ta'siri hamda hududiy mehnat bozori rivojlanishidagi o'rnini statistik va iqtisodiy tahlil usullari asosida baholangan. Shuningdek, kambag'allikni kamaytirishda mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish orqali aholi farovonligini oshirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mehnat resurslari, kambag'allik, turmush sifati, bandlik, iqtisodiy faol aholi, mehnat bozori, inson kapitali, mehnat unumdorligi, aholi daromadlari, hududiy iqtisodiyot.

**Annotation:** This article analyzes the economic significance of the efficient use of labor resources in improving the quality of life and reducing poverty. The study evaluates the employment level of labor resources, economic activity of the population, the impact of labor resources on income generation, and their role in the development of the regional labor market based on statistical and economic analysis methods. In addition, the paper highlights priority directions for increasing labor productivity, creating new jobs, and developing human capital as important factors in poverty reduction. As a result of the study, scientific and practical recommendations were developed to improve public welfare and ensure regional economic stability through the rational use of labor resources.

**Keywords:** labor resources, poverty, quality of life, employment, economically active population, labor market, human capital, labor productivity, population income, regional economy.

**Аннотация:** В данной статье проанализировано экономическое значение эффективного использования трудовых ресурсов в повышении уровня жизни населения и сокращении бедности. В ходе исследования на основе статистических и экономических методов анализа были оценены уровень занятости трудовых ресурсов, экономическая активность населения, влияние трудовых ресурсов на формирование доходов, а также их роль в развитии регионального рынка труда. Кроме того, рассмотрены приоритетные направления повышения производительности труда, создания новых рабочих мест и развития человеческого капитала в снижении уровня бедности. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения, направленные на повышение благосостояния населения и обеспечение региональной экономической стабильности за счёт рационального использования трудовых ресурсов.

**Ключевые слова:** трудовые ресурсы, бедность, качество жизни, занятость, экономически активное население, рынок труда, человеческий капитал, производительность труда, доходы населения, региональная экономика.

## KIRISH

Navoiy viloyatida aholi turmush sifatini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Hududda sanoat, kon-metallurgiya, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi mehnat resurslarining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy faol aholini ishlab chiqarish jarayonlariga keng jalb etish aholi daromadlari



barqarorligini ta'minlash va turmush sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli hududda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish kambag'allik darajasini kamaytirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda Navoiy viloyatida bandlikni ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq hududlar kesimida mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari bir xil shakllanmagan. Xususan, Navoiy va Zarafshon shaharlarida sanoat tarmoqlari rivojlanganligi sababli iqtisodiy faollik va aholi daromadlari yuqoriroq shakllangan bo'lsa, ayrim tumanlarda iqtisodiy faoliyatning cheklanganligi, norasmiy bandlik va ish o'rinlarining yetarli emasligi aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa hududlarda kambag'allik xavfini yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish holatini iqtisodiy tahlil qilish aholi turmush sifati va kambag'allik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy baholash, iqtisodiy-demografik yondashuv va tizimli tahlil usullaridan foydalanish hududdagi bandlik, ish haqi, iqtisodiy faol aholi hamda daromadlar ko'rsatkichlarini kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuvlar mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali hududda kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Fikricha, Navoiy viloyatida aholi turmush sifati oshirish va kambag'allikni qisqartirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hududlarda iqtisodiy faol aholini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga keng jalb etish aholi daromadlarini oshirish, bandlik barqarorligini ta'minlash hamda kambag'allik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududlar kesimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligidagi tafovutlar ayrim tumanlarda iqtisodiy faollikning pastligi va norasmiy bandlik ulushining yuqoriligini ko'rsatmoqda. Mazkur holat mehnat resurslarini hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi asosida oqilona taqsimlash, zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan tizimli yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini anglatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi turmush sifati oshirish va kambag'allikni qisqartirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, A. Smit o'zining iqtisodiy qarashlarida mehnat unumdorligini milliy boylikni oshiruvchi asosiy omil sifatida baholab, aholining daromadlari va farovonligi ishlab chiqarish samaradorligi bilan chambarchas bog'liq ekanligini asoslab bergan. D. Rikkardo esa daromadlar taqsimoti, ish haqi va mehnatning iqtisodiy o'sishdagi o'rnini tadqiq qilib, kambag'allikni kamaytirishda bandlikning muhimligini ta'kidlagan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan K. X. Abdurahmonov mehnat resurslari va bandlik masalalarini chuqur o'rganib, aholi turmush darajasini oshirishda mehnat bozorining samarali faoliyati muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan. Olimning tadqiqotlarida bandlikni ta'minlash, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va inson kapitalini rivojlantirish kambag'allikni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida talqin etiladi.

R. Ubaydullaeva, Sh. Xolmo'minov va G. Q. Abduraxmonova ilmiy ishlarida mehnat resurslarining sifat tarkibi, iqtisodiy faolligi va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik tadqiq qilingan. Olimlar mehnat resurslarining malaka va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish aholi turmush sifati yaxshilash hamda hududlarda kambag'allik darajasini qisqartirishning muhim iqtisodiy omili ekanligini ta'kidlaydilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda induksiya va deduksiya, statistik va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy-demografik tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish, aholi daromadlari va kambag'allik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni iqtisodiy jihatdan baholash hamda aholi farovonligini oshirish omillarini aniqlashga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Navoiy viloyatida aholi turmush sifati oshirish va kambag'allikni qisqartirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Hududda iqtisodiy faol aholi sonining ortishi, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayishi hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishi aholi daromadlari va bandlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda viloyatda sanoat ishlab

chiqarishi va xizmatlar hajmining o'sishi mehnat resurslarining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilgan. Bu jarayon hududda kambag'allik darajasining pasayishi va aholi turmush sharoitlarining yaxshilanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, hududlar kesimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligida tafovutlar mavjudligi kuzatiladi. Xususan, Navoiy va Zarafshon shaharlarida sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining rivojlanganligi sababli o'rtacha ish haqi hamda iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari yuqori shakllangan. Aksincha, ayrim tumanlarda iqtisodiy faoliyatning cheklanganligi, norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi va ish o'rinlarining yetarli emasligi aholi daromadlari darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holat mehnat resurslarini hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi asosida samarali taqsimlash zarurligini ko'rsatadi.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish darajasi hudud aholisi turmush sifati va kambag'allik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Navoiy viloyati misolida olib qalganda, mehnat resurslarining sanoat, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etilishi aholi bandligini ta'minlash bilan bir qatorda daromadlar barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida yuqori qo'shilgan qiymat yaratilishi hududda ijtimoiy farovonlikning oshishi hamda kambag'allik xavfining kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan, mehnat resurslarini hududiy iqtisodiy salohiyat va mavjud infratuzilma imkoniyatlari asosida oqilona boshqarish viloyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, viloyat hududlari o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga ham sezilarli ta'sir etmoqda. Sanoatlashgan hududlarda yuqori ish haqi va barqaror bandlik ko'rsatkichlari shakllangan bo'lsa, iqtisodiy faolligi past bo'lgan ayrim tumanlarda norasmiy bandlikning ustunligi va mehnat bozoridagi cheklovlar aholi daromadlari o'sishini sekinlashtirmoqda. Shu sababli hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, investitsion jozibadorligi hamda mavjud mehnat salohiyatidan kelib chiqib, yangi ish o'rinlarini yaratish va mehnat resurslarini qayta taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa hududiy nomutanosibliklarni qisqartirish, kambag'allik darajasini pasaytirish va aholi turmush sifati yanada yaxshilashga xizmat qiladi (1-rasm).



**1-rasm. Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan samarali foydalanishning aholi turmush sifati va kambag'allik darajasiga ta'sir etish mexanizmi**

Mazkur rasmda Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan samarali foydalanishning aholi turmush sifati va kambag'allik darajasiga ta'sir etish mexanizmi tizimli ravishda yoritilgan. Unda mehnat resurslarining sanoat, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etilishi natijasida yalpi hududiy mahsulot hajmi, aholi bandligi hamda daromadlari ortishi aks ettirilgan. Shuningdek, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan. Chizmada hududiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlash uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish va kasbiy





tayyorlash tizimini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida asoslangan(1-jadval).

#### 1-jadval

#### Navoiy viloyatida mehnat resurslari va aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2021-yil	2023-yil	2024-yil
Iqtisodiy faol aholi, ming kishi	450.9	450.2	455	457.7
Band aholi, ming kishi	428.5	410.6	426.4	435.2
Ishsizlik darajasi, %	5	8.8	6.3	4.9
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	2 742.1	3 985.4	5 876.3	6 942.5
Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	7 865.4	10 942.6	16 247.2	21 384.5
Yalpi hududiy mahsulot, mlrd. so'm	36 552.4	63 784.2	93 651.5	121 405.8

Jadval ma'lumotlari tahlili Navoiy viloyatida iqtisodiy faol aholi va bandlik ko'rsatkichlarining o'sishi aholi daromadlari hamda turmush sifatining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Xususan, 2019–2024-yillarda o'rtacha oylik ish haqi qariyb 2,5 barobarga oshgan bo'lsa, yalpi hududiy mahsulot hajmi ham sezilarli darajada kengaygan. Shu bilan birga, 2021-yilda pandemiya ta'sirida ishsizlik darajasining 8,8 foizgacha ortgani kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda iqtisodiy faollikning tiklanishi natijasida ushbu ko'rsatkich 4,9 foizgacha pasaygan. Bu esa hududda mehnat resurslaridan samarali foydalanish aholi farovonligi va kambag'allikni qisqartirishning muhim iqtisodiy omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Navoiy viloyatida kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlaridan biri mehnat resurslarini iqtisodiyot tarmoqlariga samarali jalb etish hisoblanadi. Hududda sanoat, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyatining kengayishi yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy faol aholining bandlik darajasi oshishi kambag'allik xavfi yuqori bo'lgan qatlamlarning barqaror daromad manbaiga ega bo'lish imkoniyatini kengaytiradi. Shu sababli mehnat resurslarining kasbiy malakasini oshirish va ularni hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga mos ravishda joylashtirish kambag'allikni kamaytirishning muhim iqtisodiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Hududiy tahlillar natijasida kambag'allik darajasi yuqoriroq shakllangan hududlarda norasmiy bandlik ulushi va iqtisodiy faollikning pastligi kuzatilishi aniqlandi. Xususan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi sust rivojlangan hududlarda aholi daromadlari nisbatan past shakllangan. Mazkur holatni kamaytirish uchun kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, hududlarda kasb-hunar o'qitish markazlarini kengaytirish hamda yoshlarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi turmush sifatini yaxshilash va kambag'allik darajasini qisqartirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar Navoiy viloyatida aholi turmush sifati va kambag'allik darajasi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Xususan, sanoatlashgan hududlarda iqtisodiy faol aholi ulushi va o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlari yuqori shakllanganligi sababli aholi daromadlari ham nisbatan barqaror holatda rivojlangan. Ayniqsa, Navoiy va Zarafshon shaharlarida sanoat korxonalari faoliyatining kengayishi hamda xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishi aholi bandligi va turmush darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, iqtisodiy faollik darajasi past hududlarda norasmiy bandlik va daromadlar yetishmovchiligi kambag'allik xavfini kuchaytirayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar natijasida kambag'allikni qisqartirishda mehnat resurslarini hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari asosida samarali joylashtirish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xususan, xizmat ko'rsatish, kichik biznes va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish imkoniyatlari mavjudligi kuzatildi. Shuningdek, kasbiy malaka va zamonaviy ko'nikmalarga ega mehnat resurslari yuqori daromadli ish o'rinlariga tezroq jalb qilinayotgani sababli inson kapitalini rivojlantirish kambag'allikni kamaytirishning muhim iqtisodiy omili ekanligi asoslandi. Bu esa hududda mehnat bozori infratuzilmasini takomillashtirish va malakali ishchi kuchini shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi(2-jadval).

<sup>1</sup> Muallif tomonidan stat.uz hamda Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi



## 2-jadval

Navoiy viloyatida kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlari va kutilayotgan natijalar

Muammoli holatlar	Amalga oshiriladigan yechimlar	Kutilayotgan iqtisodiy natijalar
Norasmiy bandlikning yuqoriligi	Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash	Rasmiy bandlik va soliq tushumlari oshadi
Ishsizlik darajasining ayrim hududlarda yuqoriligi	Yangi sanoat va xizmat ko'rsatish loyihalarini tashkil etish	Yangi ish o'rinlari yaratiladi
Kasbiy malaka yetishmovchiligi	Kasb-hunar va qayta tayyorlash markazlarini kengaytirish	Mehnat unumdorligi va ish haqi oshadi
Hududlar kesimida iqtisodiy tafovutlarning mavjudligi	Hududiy investitsion dasturlarni kuchaytirish	Hududiy iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi
Aholi daromadlarining pastligi	Yuqori daromadli xizmatlar va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish	Aholi turmush sifati yaxshilanadi

Jadvaldagi ko'rsatkichlar tahlili hududda iqtisodiy faollik va aholi daromadlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, xizmatlar hajmi va yalpi hududiy mahsulotning o'sishi mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlariga faol jalb qilinayotganini anglatadi. Natijada hududda ish bilan band aholining ulushi ortib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi omillar kuchaygan.

Tahlillar davomida iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi bilan bir qatorda hududiy tafovutlar ham saqlanib qolayotgani aniqlandi. Xususan, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlangan hududlarda daromad va bandlik ko'rsatkichlari yuqori shakllangan bo'lsa, iqtisodiy infratuzilmasi sust hududlarda kambag'allik xavfi nisbatan yuqori saqlanib qolmoqda. Bu esa mehnat resurslarini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Hududda aholi turmush sifatini oshirish va kambag'allikni qisqartirishning asosiy sharti mehnat resurslaridan samarali va hududiy mutanosib foydalanishni ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Bunda iqtisodiy faollikning o'sishi faqat yalpi hududiy mahsulot yoki xizmatlar hajmining ortishi bilan emas, balki yaratilayotgan iqtisodiy qiymatning aholi bandligi va daromadlariga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan baholanishi lozim. Shu jihatdan, mehnat resurslarini hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ishlab chiqarish salohiyati hamda infratuzilmaviy imkoniyatlari asosida boshqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish uchun sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari sust rivojlangan hududlarda yangi iqtisodiy "o'sish nuqtalari"ni shakllantirish zarur. Ayniqsa, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, xizmatlar sohasi va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali mahalliy mehnat resurslarini rasmiy iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish mumkin. Bu esa norasmiy bandlik ulushini qisqartirish, aholi daromadlari barqarorligini ta'minlash hamda hududiy kambag'allik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mehnat resurslarini qayta kasbiy tayyorlash, zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish va investitsion loyihalarni hududlar kesimida maqsadli joylashtirish mehnat bozori samaradorligini oshirishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Navoiy viloyatida aholi turmush sifatini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Tahlillar natijasida sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlangan hududlarda iqtisodiy faol aholi ulushi, bandlik darajasi va aholi daromadlari yuqoriroq shakllanganligi kuzatildi. Ayniqsa, Navoiy va Zarafshon shaharlarida mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonlariga faol jalb qilinishi aholi turmush sifati va iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, Konimex, Tomdi va ayrim qishloq hududlarida iqtisodiy faollikning pastligi, norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi hamda mehnat resurslarining malaka darajasi yetarli emasligi kambag'allik xavfining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa hududlar kesimida iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish



darajasi bir xil emasligini ko'rsatadi. Tahlillar davomida mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlariga samarali taqsimlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va inson kapitalining rivojlanishi aholi daromadlari barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillar ekanligi asoslandi.

Navoiy viloyatining iqtisodiy faolligi past hududlarida mahalliy resurslar asosida kichik sanoat zonalari, qayta ishlash korxonalari va xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish zarur. Bu hududlarda norasmiy bandlikni kamaytirish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Hududlarda yoshlar va xotin-qizlarni zamonaviy kasb va ko'nikmalarga o'qitishga ixtisoslashgan kasb-hunar markazlari faoliyatini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot, logistika, turizm va xizmat ko'rsatish yo'nalishlari bo'yicha malakali ishchi kuchini tayyorlash kambag'allikni qisqartirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida hududiy mehnat bozori monitoring tizimini takomillashtirish hamda iqtisodiy faol aholi, bandlik va daromadlar ko'rsatkichlari asosida manzilli dasturlarni ishlab chiqish lozim. Bu kambag'allik xavfi yuqori bo'lgan aholi qatlamlarini aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash imkoniyatini kengaytiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / пер. с англ. – М.: Наука, 1993. – 572 с.
2. Portes A. The Informal Sector under Capitalism and State Socialism: A Preliminary Comparison // Social Justice. – 1988. – Vol. 15. – № 3–4. – P. 17–28.
3. Риккардо Д. Начала политической экономики и налогового обложения / пер. с англ.; под ред. П. Н. Ключкина. – М.: Эксмо, 2007. – 960 с.
4. Абдурахманов К. Х. Экономика труда. – М.: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г. В. Плеханова», 2019. – 661 с.
5. Убайдуллаева Р., Холмунинов Ш. Социально-экономические основы занятости населения в Узбекистане. – Т.: Фан, 2006. – 184 с.
6. Абдурахмонова Г. Қ. Меҳнат иқтисодиёти. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – 312 б.
7. Толаметова З. А. Иқтисодиётни модернизациялаш жараёнида меҳнат бозорини ривожлантириш йўналишлари. – Т.: Иқтисодиёт, 2014. – 303 б.
8. Толаметова З. А. Меҳнат бозори ва аҳоли бандлиги: ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2005.
9. Улуғмуродова Н. Б. Меҳнат иқтисодиёти: ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2021. – 35 б.
10. <https://siat.stat.uz/>
11. <https://www.navstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**







+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)